



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT SOLIQ QO‘MITASI

100011, Toshkent shahri, A. Qodiriy ko‘chasi, 13 A
Tel: (71) 244-97-16, Faks: (71) 244-89-12

2022 - yil “28” dekabr

20/5-169800 - son

“TENGE BANK” aksiyadorlik tijorat bankiga STIR: 207297973

Manzil: Toshkent shahri, Yashnobod tumani,
Parkent ko‘chasi, 66-uy.

Bankning 2022-yil 23-dekabr kuni
murojaat qilgan arizasiga javoban

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 23-noyabrdagi 943-sonli qarori 1a-Ilova “Aholi bilan pulli hisob-kitoblarni amalga oshirishda elektron to‘lov tashkiloti va (yoki) elektron tijorat platformalari (marketpleys) orqali elektron fiskal chek taqdim qilish tartibi to‘g‘risida”gi Nizom talablariga muvofiq, Davlat soliq qo‘mitasining “O‘zbekiston Respublikasi hududida qo‘llanilishi ruxsat etilgan Marketpleylarni Davlat reestrini yuritish bo‘yicha” 2022-yil 27-dekabrdagi 21-sonli majlis bayoniga asosan bank tomonidan taklif etilgan “Tenge Market” rusumli marketpleys O‘zbekiston Respublikasi hududida qo‘llanilishi ruxsat etilgan elektron to‘lov tizimi va (yoki) elektron tijorat platforma — **Marketpleys** sifatida Davlat reestriga **kiritildi**.

Bank tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 23-noyabrdagi 943-son va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 4-oktabrdagi PQ-5252-son qarorlari bilan tasdiqlangan talablarga qat’iy rioya etish vazifasi;

“Tenge Market” rusumli marketpleysning texnik-funksiyalari va versiyalari o‘zgargan taqdirda Davlat soliq qo‘mitasi hamda Fiskal ma’lumotlar operatorini xabardor etish;

chekda **“Siz xaridning 1% miqdorida “Keshbek” olish huquqiga ega bo‘ldingiz”** mazmunida matn chiqish imkoniyatini yaratish **yuklatiladi**.

Shuningdek, mazkur qarorlar talablariga mos kelmagan hamda Davlat reestirdan o‘tmagan elektron to‘lov tizimi va (yoki) elektron tijorat platforma — **Marketpleys** aniqlangan taqdirda belgilangan tartibda bartaraf qilgunga qadar cheklov qo‘yish uchun ishchi guruhga taklif kiritilishi yuzasidan ogohlantiriladi (*majburiyatlar ilovaga asosan*).

Murojaatni ko‘rib chiqish natijasi qanoatlantirmagan taqdirda, O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq shikoyat qilishingiz mumkinligi tushuntiriladi.

Rais o‘rinbosari



A.Fayzibayev

172.24.28.104

172.24.28.104

172.24.28.104

Ijrochi: O.Parpiyev
Tel.: 01826
ID: 34177355
Sana: 28.12.2022

172.24.28.104

172.24.28.104

172.24.28.104